

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN ERTAKLI KITOBLAR YARATISH USULLARI

D.M.Maxmudova

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi,
pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Talaba: **Rustamova Xumora**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni xalq og'zaki ijodi vositalaridan bolalarga mo'ljallangan ertaklar yaratish metodlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Ijodiy meros, afsona, aqliy, axloqiy, fikrlash, tafakkur, estetik, kitobxonlik, taqqoslash, takomillashtirish.

Аннотация: В данной статье в соответствии с «Государственным стандартом дошкольного образования и воспитания», утвержденным постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 декабря 2020 года №802, создаются сказки для детей из средств изложены методы народного творчества в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: творческое наследие, миф, психическое, нравственное, мышление, созерцание, эстетическое, чтение, сравнение, совершенствование.

Abstract: In this article, in accordance with the "State standard of preschool education and upbringing" approved by the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 22, 2020 No. 802, creating fairy tales for children from the means of folk art in preschool educational organizations methods are explained.

Key words: creative heritage, myth, mental, moral, thinking, contemplation, aesthetic, reading, comparison, improvement.

Maktabgacha ta'lim yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo'lishiga qaramay, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagani, bu sohada chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj dolzarbligini belgilaydi. Maktabgacha pedagogika va psixologiyada katta maktabgacha yosh davri sifatida 5-6 yosh qabul qilingan. Maktabgacha katta yosh davrida qoidaga muvofiq murakkab va uzoq davom etadigan jarayon sifatida nutqni o'zlashtirish jarayoni tugaydi. Til fikrlash va muloqot, ongli o'rganish ob'ekti vositasiga aylanadi. Chunki bolani maktabga tayyorlash vaqtida o'qish va yozishga o'rgatish boshlanadi, fonematik rivojlanish tugallanadi. Mazkur yosh davrida nutqning so'z boyligi jadal ortadi, uning grammatik qurilishi rivojlanadi. Shuningdek, bolalar sintaktik (gap tuzish) va morfologik (so'z yasash) qoidalarni egallaydi. R.S.Nemov ta'kidlab o'tganidek, muloqot vaziyatli tavsifdan bilish jarayoni ob'ektiga aylanadi. Bolalar shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligiga alohida e'tibor qarata boshlaydi.

Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uyg'otish orqali mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim tizimida talabalarni fikrlashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o'rgatish zarurdir.

“Fikr tarbiyasi, - deya ta'kidlagan edi buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, - ko'p zamonlardan beri tadqiq qilinib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir sharofatlik, g'ayratlik bo'lishga sabsb bo'ladir”.¹

Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. Maktabgacha ta'limga taaluqli o'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlari: xalq ertaklari, xalq o'yinlari, alla-qo'shiqlari, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar katta ta'lim va tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Xalq og'zaki ijodida shaxsni har tomonlama rivojlantirishning barcha tarkibiy qismlari: aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat tarbiyasi ko'zda tutilgan va shunga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Fikrlash qobiliyatiga egalik, birinchidan, ma'lumotlarni, axborotlarni o'zlashtirish, ularni o'zaro qiyoslash va umumlashtirishni, ikkinchidan, o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda faoliyatni tashkil etishda qo'llay olish tajribasini nazarda tutadi. Bunday ko'nikmani shakllantirish uchun yosh avlodni turli masalalarni mustaqil yechishga o'rgatish, ularni harakatlar tizimi, tarkibiga ko'ra dastlab oddiy, keyin esa murakkab mashqlarni yechishga o'rgatish muhim. Bunday topshiriqlarni bajarishni rejalashtirish (tahlil qilish, usullarni tanlash va bajarish tartibini belgilash), jarayoniga alohida e'tibor qaratish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturidagi farmonda aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash; mutolaa madaniyatini yuksaltirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va metodlarini tatbiq etish masalasi ko'rsatib o'tilgan. Ilmiy-metodik adabiyotlar, izlanishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi, jumladan ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son Qaroriga muvofiq «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari», va takomillashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun «Ilk qadam davlat o'quv dasturi»da belgilangan rivojlanish sohalari, rivojlanish markazlar integratsiyasi asosida bolalarni kitobxonlikka tayyorlash, yuqorida qo'yilgan masalalarni xalq etishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka tayyorlash uchun ushbu yosh xususiyatni inobatga olgan xolda metodikani takomillashtirish lozim. Masalan, metodik ko'rgazmalar, zamon talabiga javob beradigan noan'anaviy kitoblar va hokazolar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida belgilangan rivojlanish markazlar integratsiya asosida olib boriladi. Integratsiyalashgan rivojlanish markazlaridagi ta'limiy jarayonlar bolalarni kitobxonlikka tayyorlashga, bu faoliyatning samaradorlik ko'rsatkichi muntazam ortib borishiga yo'naltirilgan ekan, uning bosh maqsadi bilimlarni o'zlashtirishda bolalarni kitobxonlikka tayyorlashning eng qulay, oddiy tushuncha va tasavvurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish-intilishlari orqali uzluksiz o'zlashtirilishini ko'zda tutadi.

¹ Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.-160 b

Kitobat san'ati haqida gapirar ekan, Bobur bobomiz 1505-1506 yil voqyealarida Sulton Husayn Mirzo davridan, hazrat Navoiy zamonidan shunday ma'lumotni keltirib o'tadi: "Xushnavislardan agarchi xili kishi bor edi, vale borining saromadi nasx ta'liqda Sulton Ali Mashhadiy edi. Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi. Har kunda o'ttuz bayt Mirzo uchun va yigirma bayt Alisherbek uchun bitir edi".

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob'ektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Atoqli folklorshunos olim Mansur Afzalov hayvonlar hayotiga oid ertaklarda ham insonlarning axloqi, fe'l-atvori, tabiati yaxshi ochib berilganligini, bu ertaklar bolalar qalbiga va ongiga tez yetib borishini aytganida ming bora haqli edi.

Inson xayolotining ufqlari uning ruhiy olami qadar keng hamda chegarasizdir. Shuning uchun ertak azal-azaldan kishilardagi yaxshi sifatlarni kamol toptirish-ning, ularning go'zallikni his etish qobiliyatini o'stirishning, Vatan, el-yurt obodligini, osoyishtaligini ta'minlash ishq bilan yashashga targ'ib etishning qudratli vositasi sifatida kishilar xotirasida yashab keladi.

„Bulbuligo'yo" o'zbek xalqining ertak chamanidan saralab berilgan bir guldasta. Bu ertaklar xalqimizning yuksak va musaffo xayolot osmonining bir burji, xolos. Bu osmon katta-kichik yulduzlar bilan bezangan. Siz ularga tunlar mijja qoqmay boqing. Ana o'shanda yulduzlarning betakror jilvasi, nurziyo tovlanishi sizga huzur-halovat baxsh etadi, ko'ngildagi g'ubor tarqab, o'rnini nurafshon tuyg'ular egallaydi. Agar farzandlarimiz yaxshi odamlar bo'lib yetishsin desangiz, siz ularga oydin tunlarda oppoq tongga qadar ertak so'ylab bering, ularning murg'ak qalbida oy nuri bilan yo'g'rilgan ezgu tuyg'ular bir umrga naqshlanib qoladi.

Kitobat san'ati haqida gapirar ekan, Bobur bobomiz 1505-1506 yil voqyealarida Sulton Husayn Mirzo davridan, hazrat Navoiy zamonidan shunday ma'lumotni keltirib o'tadi: "Xushnavislardan agarchi xili kishi bor edi, vale borining saromadi nasx ta'liqda Sulton Ali Mashhadiy edi. Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi. Har kunda o'ttuz bayt Mirzo uchun va yigirma bayt Alisherbek uchun bitir edi".

Bolalarni ma'naviy-axloqiy, kitobxonlik tarbiyalash, ularda g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish avvalo oilada ota-ona ko'magida, keyinchalik maktabgacha ta'lim muasasasida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda shakllanib boradi. Bu bilan bolalarda g'oyaviy e'tiqod hamda go'zalikka munosabatni tarbiyalash muammolariga tizimli yondashilgan bo'ladi. Yosh avlodda ma'naviy-axloqiy, kitobxonlik sifatlarini tarbiyalashda halqning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilishi, amlaiyotga joriy etilishi; erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash, ularni har tomonlama kamol toptirish ustuvorligini ta'minlash lozim. Shuning uchun ham tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda. Shu bois mamlakatimizning tiklash, milliy tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jaxon andozalari darajasiga chiqarishga kata ahamiyat berilmoqda. Bu borada oxirgi yillarda talaygina maqtovg'a loyiq ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
6. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
7. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 8, 61-63.
8. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. Экономика и социум, (1-1 (80)), 157-159.
9. Махмудова, Д. М. (2023, January). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШДА INNAVATSIYON КИТОБЛАРНИ АХАМИЯТИ. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
10. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).